

IKKINCHI JAHON URUSHI ARAFASIDA TOSHKENT

Yuldasheva Shaxnoza Ergash qizi, Shon-sharaf davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, "Ajdodlar izidan" harbiy-tarixiy jamiyati bosh mutaxassisi

TASHKENT ON THE EVE OF THE SECOND WORLD WAR

Yuldasheva Shakhnoza Ergash qizi, Senior Researcher at the "Shon-sharaf" State Museum, Chief Specialist of the "Ajdodlar izidan" Military-Historical Society

ТАШКЕНТ НА КАМУНЕ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Юлдашева Шахноза Эргаш кызы, старший научный сотрудник Государственного музея «Шон-шараф», ведущий специалист военно-исторического общества «Аждодлар изидан»

Annotatsiya: Maqolada Toshkent tarixi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, Ikkinchi jahon urushi arafasida Toshkent shahrining tutgan o'rni, aholisi tahliliy dalillar bilan o'rganilgan. Toshkent shahridagi umumiy harbiy safarbarlik, rayonlashtirish maqsadida amalga oshirilgan ishlar, strategik muhim shaharga aylanganligi faoliyati atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent, Ikkinchi jahon urushi, Strategiya, mitinglar, Ijroiya komitetlari, Toshkent shahrini rayonlashtirish, Toshkent aholisi.

Abstract: The article, based on analytical materials, examines the history of Tashkent, its administrative-territorial structure, the position of Tashkent on the eve of World War II, and the composition of its population. The general military mobilization in Tashkent, the work on zoning, and its transformation into a strategically important city are covered in detail.

Key words: Tashkent, World War II, strategy, rallies, revolutionary committees, division of Tashkent into districts, population of Tashkent.

Аннотация: В статье рассматриваются история Ташкента, его административно-территориальное устройство, место Ташкента накануне Второй мировой войны и население с использованием аналитических материалов. Подробно освещаются всеобщая военная мобилизация в Ташкенте, работа по зонированию и превращение его в стратегически важный город.

Ключевые слова: Ташкент, Вторая мировая война, стратегия, митинги, исполкомы, зонирование Ташкента, население Ташкента.

Kirish. Tarixdan ma'lumki, shahar "Toshkent" nomi bilan dastavval XI asrning mashhur allomalari Abu Rayhon Beruniy va Mahmud Qoshg'ariyning asarlarida tilga olinadi. Beruniy "Hindiston" asarida Toshkent nomining kelib chiqishi to'g'risida so'z yuritib, "Tosh" so'zi asli turkcha bo'lib, "Shosh" ko'rinishini olganini

aytadi. "Toshkand – toshli qishloq demakdir", deb izohlaydi. Mahmud Qoshg'ariyning ma'lumoti bo'yicha, Toshkent XI–XII asrlarda "Tarkan" deb ham yuritilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida Toshkent nomi ustida to'xtalib, "... asarlarda Toshkent nomini Shosh, ba'zan Choch yozadilar", deb qayd etadi. Biroq



<https://orcid.org/000>

0-0002-2450-0099

e-mail:

shahnozayuldasheva

90@yandex.com



XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida Toshkent toponimi shuhrat topib, uning qadimiy Choch, Shosh va Binkat nomlari asta-sekin muomaladan tushib qoldi. XVII asrda yashagan tarixchi olim Mahmud ibn Vali shunday yozadi: “Shosh – Sayxun (Sirdaryo)ning u tomoniga joylashgan shahar va Turkiston (viloyat)ga qaraydi... Uni Choch ataydilar. Biroq hozirgi vaqtda u Toshkent nomi bilan mashhurdir”[1].

Adabiyotlar tahlili. XVIII asr oʻrtalarida shahar qoʻldan-qoʻlga oʻtib turgan boʻlsa-da, Toshkent 4 daha (qism)ga – Shayxontohur, Sebzor (Qaffoli Shoshiy), Koʻkcha (Shayx Zayniddin), Beshyogʻoch (Zangiota) dahalariga boʻlinib, ularning har birini mustaqil hokim boshqargan. Toshkent tarixida bu davr Chorhokimlik deb atalgan.

1865-yil sentyabrda Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy Toshkentga kelib, shaharning Rossiya imperiyasi tasarrufiga oʻtganligini eʼlon qilgan. 1866-yil avgustda Rossiya imperiyasining Toshkentni Rossiya tobeligiga olinganligi haqidagi rasmiy farmoni eʼlon qilinib, Toshkent 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi boʻlib qolgan.

Rossiyada Oktyabr toʻntarishi haqidagi xabar Toshkentga yetib kelgach, bolsheviklar va soʻl eserlar hokimiyatni zoʻravonlik yoʻli bilan egallash uchun kurashganlar. 1917-yil 28-oktyabrda Bosh temir yoʻl ustaxonasining mahalliy millatga mansub boʻlmagan ishchilari hamda askarlar qoʻzgʻolon boshladilar. Ular temir yoʻl deposi, tovar omborlari, 1-Sibir polki kazarmalarini ishgʻol qildilar. Shahar markazi qoʻzgʻolonchilar qoʻliga oʻtgan. 1(14) noyabrda Tuproqqoʻrgʻon ham ishgʻol qilingach, Toshkentda shoʻrolar hokimiyati oʻrnatilgan. 1918-yil 30-apreldan Toshkent Turkiston ASSRning poytaxti deb eʼlon qilingan. 1924-yili poytaxt Samarqandga koʻchirildi. 1930-yildan Toshkent yana Oʻzbekiston SSR poytaxti boʻlgan.

1925-yil boshlarida maʼmuriy-hududiy chegaralanish natijasida Oʻzbekiston SSR tashkil etilib, maʼmuriy jihatdan 7ta viloyatdan iborat boʻlgan. Xususan, Samarqand viloyatining markazi Samarqand shahri, Toshkent viloyatining markazi Toshkent[2], Fargʻona viloyatining markazi Qoʻqon, Zarafshon viloyatining markazi Buxoro, Qashqadaryo viloyatining markazi

Behbudiy (Qarshi), Surxondaryo viloyatining markazi Sherobod, Xorazm viloyatining markazi Xiva shahri boʻlgan. Shu davrda Oʻzbekiston SSR hududida jami 23 ta uyezd, 227 ta volost va tumanlar tashkil etilgan.

1926–1927-yillari respublikada rayonlashtirish siyosati oʻtkazilishi natijasida yangi maʼmuriy-hududiy tuzilish amalga oshirilib, viloyatlar oʻrniga Toshkent, Samarqand, Oʻrta Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Andijon, Buxoro, Qoʻqon va Xoʻjand kabi 10ta okrug tashkil etilgan. Rayonlashtirishda mayda millatlarni bitta okrugga jamlash, irrigatsiya tizimi, qishloq xoʻjaligi yoʻnalishi, savdo munosabatlari alosiy mezon sifatida olingan [3]. Shahar aholisining soni boʻyicha Toshkent okrugi birinchi oʻrinda turgan, aholisining 50,6 foizi shahar aholisini tashkil qilgan. Bu holat Oʻrta Osiyodagi eng yirik shahar – Toshkent shahri ushbu okrugda joylashganligi bilan bogʻliqdir.

Oʻzbekiston SSR Markaziy saylov komiteti (SIK) Prezidiumining 1929-yil 29-noyabrdagi “Toshkent shahrini rayonlashtirish toʻgʻrisida”gi 36/25-sonli qaroriga asosan Toshkentning “yangi” va “eski” shahar sovetlari ishchi, dehqon va qizil armiyachi deputatlarning yagona shahar sovetiga birlashtirildi. Shu bilan birgalikda rayonlarda yangi maʼmuriy boʻlinish kiritildi. Shu davrdan boshlab, Toshkentning butun hududi 4ta rayonga, yaʼni Lenin, Oktyabr, Proletar (1935-yili Kuybishev [4] deb oʻzgartirilgan) va Stalin rayonlariga boʻlingan va ijroiya komitetlarining boʻlimlari tashkil etilgan[5].

1930-yillarda Toshkent Oʻzbekistonning poytaxti boʻlganidan soʻng va bu yerda uy-joy hamda sanoat korxonalari qurilishi rivojlangandan keyin rayonlarni boshqarish murakkablashdi. 1936-yil sentyabrda Kirov va Frunze rayonlari tashkil etildi. 1939-yilda Toshkentni rekonstruksiya qilish loyihasi tasdiqlandi, unda shaharning “eski” va “yangi” qismini birlashtirish koʻzda tutilgan edi. Toshkent shahrida 1926-yilda 314 ming nafar kishi yashagan. 1926-yil aholini roʻyxatga olish natijalariga koʻra, Oʻzbekiston SSRda 500 ming nafardan oshiq aholisi boʻlgan shahar mavjud boʻlmagan, 1939-yil aholini roʻyxatga olish hujjatlarida qayd etilishicha, Toshkent shahrining aholisi 550 ming nafarga yetgan[6].

1943-yilgacha Toshkentda 6ta, jumladan, Kirov, Kuybishev, Lenin, Oktyabr, Stalin, Frunze rayonlari bo'lgan. Urush yillarida shahar iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirishning yangi vazifalari tumanlarni tarqoqlashtirishni taqozo etgan. Natijada 1943-yil aprelda ikkita yangi Moskva va Markaziy[7] rayoni tashkil topgan. Tumanlarni birlashtirish natijasida mehnatkashlarning madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va madaniy-maishiy sohani boshqarish yaxshilangan.

Toshkent shahri o'z boshidan o'tkazgan boshqa tarixiy davrlar kabi 1941-1945-yillardagi urush davrida ham Sovet ittifoqi miqyosida salmoqli o'rin tutgan. Ikkinchi jahon urushi yillari Toshkent front bilan uzviy bog'langan. Urush boshlanganligi to'g'risidagi xabar e'lon qilinishi bilan O'zbekistonning barcha shahar va qishloqlari kabi, Toshkentda ham vatanparvarlik mitinglari bo'lib o'tgan. Urushning birinchi kunidayoq Toshkent to'qimachilik kombinatida o'tkazilgan ommaviy mitingda uning qatnashchilari o'zlarini Vatanni himoya qilishga safarbar etilgan deb hisoblashga qaror qilganliklarini bildirishgan. Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodi ishchilarining 23-iyundagi mitingda qabul qilgan qarorlarida fashizm ustidan tezroq g'alaba qozonmoq uchun har qanday topshiriqni sharaf bilan bajarishga tayyor ekanliklarini bildirganlar.

1941-yil 23-iyunda Toshkent shahrida ko'p ming kishilik miting bo'lib o'tdi. Uning qatnashchilari – partiya va sovet organlarining vakillari, turli korxona va tashkilotlarning ishchi-xizmatchilari, o'qituvchilar va talabalar vatanni himoya qilishga tayyor ekanliklari haqida gapirdilar, frontda ham, mamlakat ichkarisida ham manfur yov ustidan qozoniladigan g'alabani tayyorlashga shay turganliklarini bildirdi.

Muhokama. Toshkent shahridagi “Oktyabr revolyutsiyasi” nomidagi zavod ishchilari esa 23-iyunda ish boshlanmasdan ikki soat oldin to'planishgan. Ular birinchi xabar va buyruqni kutmasdanoq, o'z dastgohlari oldiga kelishib, o'sha kuni 12 soat to'xtovsiz ishlaganlar. Zavodning ko'p ming kishilik jamoasi mitingda qabul qilingan qarorda Vatanni mudofaa qilishdan iborat muqaddas ishga butun kuch va g'ayratlarini sarflashlarini, agar lozim bo'lsa o'z jonlarini ham ayamaskliklarini bildirishgan. 23-iyunda Toshkentda umumshahar mitingi bo'lib o'tgan.

Miting qatnashchilari fabrika va zavod, korxona va muassasa ishchi, xizmatchilari, o'qituvchilar urushga tayyor ekanliklarini bildirganlar.

1941-yil 22-iyulda mamlakatda harbiy holat joriy etish haqidagi farmon e'lon qilindi. Mazkur farmonga binoan 14 okrug hududi bo'yicha 1905-1919-yillarda tug'ilgan harbiy xizmatga majbur kishilarning umumiy safarbarligi to'g'risidagi qonun kuchiga kiritildi. Shu tariqa dushmanga zarba berishning keng dasturi amalga oshirila boshladi.

Mitinglar, shuningdek, zavod, fabrika va qurilishlarda ham bo'lib o'tgan. Toshkent ishchilar sinfining vakillari dastgohni pulemyotga, bolg'ani miltiqqa almashtirishga tayyor ekanliklarini aytgandilar. Ular oshirilgan majburiyatlar olganlar va urushning birinchi kunlaridanoq reja topshiriqlarini oshirib bajarish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun kurashga kirishganlar, harbiy davrning favqulodda sharoitida frontchasiga mehnat qilish uchun so'z berganlar[8].

Urushning birinchi kunlaridanoq respublika, shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ko'ngilli frontga jo'nab ketish uchun ariza bergan. Birinchi ko'ngillilar ichida Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodi ishchisi Abdullayev, Toshtram ishchisi Obloqulov, Toshkent Veterinariya institutining xodimi Usmonov va boshqalar bor edi. Iyul oyining boshlarida O'zbekiston SSR shahar va qishloqlarida o'z turmush o'rtog'i, o'g'illari va aka-ukalariga yordam berishga tayyor ekanliklarini izhor qilgan xotin-qizlarning yig'ilish va ko'p kishilik mitinglari bo'lib o'tgan. Shunday mitinglardan biri 1941-yil 5-iyulda Toshkent shahrining Oktyabr tumanida bo'lib o'tgan. Unda 15 ming xotin-qizlar qatnashib, frontga o'z hissalarini qo'shishlarini bayon qilishgan.

Urushning boshlaridayoq nemis fashistlariga qarshi urushda qatnashish uchun Toshkent shahridan 100 ming yigit va qiz frontga jo'nab ketgan. Shahar xo'jaligi, sanoat korxonalari, muassasalar, harbiy-ommaviy tashkilotlar qisqa muddat ichida harbiy yo'nalishga tushirilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida Toshkent sovet hokimiyati uchun strategik muhim shaharga aylandi. Bu davrda evakuatsiya qilingan odamlar, jumladan, ishchilar, mutaxassislar va harbiy

xizmatchilar hisobiga shahar aholisi sezilarli darajada ko'paydi, bu esa uning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatdi.

Toshkent shahri va viloyatida 1941-yilning 22-iyunidan 27-iyunigacha armiyaga ko'ngilli bo'lib kirish haqida 7600ta ariza berildi. Shundan bir qismi xotin-qizlardan iborat edi. Arizalarning bunday ko'plab tushishi respublika viloyat hamda tumanlarida front va mamlakat ichkarisi oralig'ida odam resurslarini izga solib turish yuzasidan maxsus tanlov komissiyalarini tuzish zaruratini tug'dirdi. Toshkent shahri va viloyatida Vatan himoyasiga, ayniqsa, yoshlar faollik bilan istak

bildirdilar. Vatan taqdiri uchun shaxsiy mas'uliyat hissi bilan sug'orilgan odamlar qo'lda qurol bilan mamlakat shon-sharafi, ozodligi va mustaqilligini himoya qilish uchun frontga intilar edilar. Necha 10 minglab yigit-qizlar umumta'lim va Osoavixim orqali harbiy tayyorgarlikdan o'tdilar. 1941-1943-yillar davomida faqat Toshkent viloyati yoshlar tashkilotining o'zi armiyaga 37 ming nafar yigit va qizlarni yubordi, shundan 10 mingtasi milliy qismlarga borib qo'shildi. Toshkent shahri va viloyatidan frontga yuborilganlarning umumiy soni:

	1940-yil	1941-yil	1942-yil	1943-yil	1944-yil	1945-yil
Toshkent shahri	6345	41095	52183	19827	9659	5093
Toshkent viloyati	4447	34516	45325	25626	6385	3668
Jami	10792	75611	97508	45453	16044	8761

Quyidagi raqamlar Toshkent shahri va viloyatidan frontga yuborilganlar umumiy soni 254 169 ta ekanligini va bu butun O'zbekiston Respublikasidan frontga jo'natilganlarning 20% ni tashkil qilganligini ko'ramiz[9].

Xulosa. Xulosa o'rnida Toshkent urush bo'lmayotgan hudud bo'lsa-da, uning barcha moddiy va ma'naviy kuchlari to'laligicha fashizmga qarshi kurashishga safarbar etildi. Tinchlik yo'lida dehqondan tortib olimgacha, ishchidan rahbargacha birlashdi, frontchasiga ishlashga o'tdi. Natijada, o'sha g'oyat og'ir va suronli davrda yurtimiz frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "T" harfi. Toshkent. 524-bet.
2. 1920-yil 16-iyunda shahar hududida Eski shahar va Yangi shahar rayon deputatlari soveti hamda Umumshahar ishchilar, qizil askarlar va dehqonlar deputatlari soveti tashkil etilgan. Batafsil qarang:

Toshkent shahar markaziy davlat arxivi. S-10-jamg'arma. 226-yig'majild. 34-varaq.

3. Mazkur okruglarda okrug markazlaridan tashqari rayon markazlari bo'lgan 22ta shahar hamda 4ta shahar "poseleniye"lari ham bo'lgan.

4. 1992-yil may oyidan Mirzo Ulug'bek tumani deb atalgan.

5. Mashhura Darmonova. Toshkent shahar markaziy davlat arxivi: tarixi va tarixiy manbalari. Toshkent. 2020. 36 – 37-betlar.

6. Мулладжанов И.П. Народнонаселение Узбекской ССР (социально-экономический очерк). – Ташкент: Узбекистан, 1967. – S.194.

7. Toshkent shahar markaziy davlat arxivi. S-216-jamg'arma. Markaziy rayoni.

8. Toshkent shahar Xotira kitobi. Birinchi jild. Toshkent. 1994. 5 – 6-betlar. (608 b).

9. Xotiralarda jonlangan tarix. Ikkinchi jahon urushida erishilgan g'alabani 77 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar materiallari to'plami. T-2023. B-40.

